

O'zbekistonda xorijiy universitet bilan "Smart Agriculture" va "Geoinformatics" magistraturada "Joint degree" diplom berish bo'yicha qo'shma dastur yo'lga qo'yiladi

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash institutining bir guruh vakillari 2019 yil 1 mart kuni Vengriyaning Obuda universitetiga tashrif buyurishdi. TIQXMMI prorektori Baxodir Mirzayev hamda Obuda universiteti prorektori Levent Kovanch o'rtasida hamkorlik to'g'risida o'zaro muloqot bo'lib o'tdi.

Uchrashuv jarayonida prorektorlar ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan hamkorliklar, erishilgan yutuqlar hamda hamkorlikni yanada kengaytirish bo'yicha istiqboldagi vazifalarni belgilab olishdi.

Uchrashuvda TIQXMMI va Obuda universiteti bilan hamkorlikda kadrlarni tayyorlash, jumladan, qo'shma ta'lim dasturlari asosida "Smart Agriculture", "Geoinformatics", "Land Management" va "Mechatronics" magistratura mutaxassisliklari bo'yicha hamkorlikda magistrnlarni tayyorlash, professor-o'qituvchilarning malaka oshirishlarini va tajriba almashuvlarini tashkil etish, shuningdek, ERASMUS+ xalqaro kredit mobillik loyixasi va Vengriyaning milliy granti doirasida hamkorlikni yo'lga qo'yish kabi masalalar muhokama qilindi.



Shuningdek, 2019/2020 o'quv yilidan "Smart Agriculture" va "Geoinformatics" mutaxassisliklari qo'shma ta'lim dasturlari asosida muassasalar o'rtasida ikki tomonlama (Double degree) va qo'shma diplom (Joint degree) dasturlari bo'yicha kadrlar tayyorlashni amalga oshirish kelishildi.